

## Gadoiy Ijodida Janr Xususiyatlari

*Sharibjonova Xurshidaxon Anvarjon qizi<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Gadoiyning she'riy merosida qo'llangan janrlar – g'azal, qit'a, mustazod va qasida –ning xususiyatlari, ularning mazmuni va badiiy san'atlar vositasida ifodalanishi o'r ganiladi. Gadoiyning ikki tilda ijod qilgani, uning forsiy va turkiy she'rlari, shuningdek, badiiy san'at turlarini mohirlik bilan qo'llagani haqida batafsil tahlil beriladi. Maqolada shuningdek, "Funun ul-baloga" kabi nazariy manbalar asosida adabiy janr va badiiy san'at tushunchalari yoritiladi.

**Kalit So'Zlar:** Gadoiy, g'azal, qit'a, mustazod, qasida, badiiy san'at, aruz, she'riy janrlar, Funun ul-baloga, turkiy adabiyot, forsiy adabiyot, klassik poeziya.

Gadoiy o'zbek g'azalchiligi, uning janrlari va mavzu ko'laming kengligi adabiyotni ilg'or, ijtimoiy g'oyalar bilan boyishiga xizmat qiladi.

Gadoiy zullisonayn ya'ni ikki tilda ijod qiluvchi shoir hisoblanadi. Uni turkiy g'azallari bilan bir qatorda forsiy tilda yozilgan g'azallari bor. Faxriy Hirotiy "Radoyif ul- ash'or" bayozida XV asr fors-tojik tilida ham she'rlar yozib, ma'lum e'tiborga ega bo'lган ijodkorlar ro'yxatini tuzib, g'azallaridan namunalar keltirgan. Ushbu asar O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institute qo'lyozmalar fondida 7695 enventar bilan saqlanmoqda. "Mavlono Gadoiy quddusiya surruhu" tarzida nomi keltirilgan va 46-sahifada Gadoiyning quyidagi besh baytli g'azali yozilgan.

*Chashmoni man zi ashk damodam chu lolaho,*

*Dorand az firoqi tu purxun piyolaho.*

*Nabvad g'izalaro chu ba chashmi tu nisbate,*

*Ayni xatost nisbati o'ro g'azaloho.*

*Kilki qazo ba safhayi on ruyi dilkusho,*

*Az mushki tar navishta ba xo 'bi risolaho.*

*Ey nay agar z dardi judoyi z man nafas,*

*Yakdam biyokibo tu barorem naloho.*

*Bo la'li yor hamchu Gadoyi bobazmi,*

*Doramz hunni diyda labolab piyolaho.<sup>2</sup>*

Mazmuni : Ko'z yoshi bilan to'lgan mening ko'zlarim dambadam lolaga o'xshab ketadi. Ular xuddi hajr qoni bilan to'ldirilgan piyolaga o'xshaydi. Kiyik ko'zları ham hatto sening ko'zlaringga teng kelolmaydi, qiyoslab bo'lmaydi.

Qazo kelki (taqdir qalami) oq sahabaga mushkdan naqsh tushirganlar. Sening yuzingdagi qosh-u ko'zlar naqshlar kabi jiloga ega. Ey nay mening judolik dardi bilan chiqargan nafaslarimga sening la'li hayolingda Gadoiy qizning qon yoshlariga to'la piyolaga aylanadi.

<sup>1</sup> Бухарский государственный медицинский институт, Бухара, Узбекистан

<sup>2</sup> <https://kh-davron.uz>



G'azal aruzning hazaji musammani axrabi makfufi ashtar ruknida yozilgan. Bu g'azalida Gadoiy juda ko'p go'zal tashbehlar yaratadi. Masalan shoir labni qizil yoqutga qiyoslasa, yana bir baytda mashuqaning ko'zları kiyiknidanda go'zal va unga tenglasha olmaydi deb go'zal jozibani yaratadi. Gadoiy birinchi baytda so'zlarni shu darajada mahorat bilan qo'llab tashbehning go'zal namunasi yaratadi: Ko'z yoshlarning lolaga quyilib to'lishi qon to'ldirilgan piyolaga qiyoslanadi.

Qit'a\* (arab –bo'lak, qism, parcha) - mumtoz adabiyotida lirik janr. She'riy shakl sifatida qasida va g'azaldan oldin paydo bo'lган. Tuzilishiga ko'ra g'azalga yaqin turadi, lekin qit'ada matla' qofiyalanmaydi. Hajmi ham qat'iy emas, mazmun talabiga ko'ra, ikki bayt va undan ortiq (hatto 19 baytgacha) bo'lishi mumkin. Har bir qit'a yaxlit asar bo'lib, biron mavzuga bag'ishlanadi. Boshqa lirik janrlarga nisbatan qit'ada shakl va mazmun erkinligi ustun mavzu doirasi ham keng. Unda ijtimoiy siyosiy diniy falsafiy axloqiy – ta'limiy va boshqa mazmundagi fikrlar hajv va hazil mutoiba tarzida shoir hayotining turli lahzalari bilan bog'liq qayd va mulohazalar sifatida o'z ifodasini topish mumkin. Fors – tojik adabiyotida qit'aning dastlabki namunalari Rudakiy ijodida ko'rindi. O'zbek adabiyotida qit'aning ilk namunalari "Devonu lug'otit – turk"da uchraydi.

Gadoiy ijodida ham qit'a janrining go'zal namunalarini uchratish mumkin. Gadoiy qit'alarida ma'no va mazmun keng yoritib berilganiga guvoh bo'lamiz.

*Topmag 'ay g'avvosi fikrat sen bekin,*

*Bahri husn ichra begin bir javhare.*

*Zulfingga vobastamen bu shahrda,*

*Sensizin yo 'qsa manga bir jav Hiri.<sup>3</sup>*

Ushbu qit'ada an'anaviy ishq mavzusi qalamga olinadi. Dengizchi seningdek husnda tenggi yo'q javharni dengizdan topmas, bu shaharda sening sochlaringga bog'langanman. Sensiz menga bu Hirot shahri...

Shoir javhare hamda jav Hiri so'zlarini qofiyadoshlikda ifodalab, go'zal joziba yaratdi.

*Xisravo usruk ko 'zungning shavqidin,*

*Xush sujud aylar damo - dam qo 'shqulooq.*

*Joyi uldurkim sanga xurshidu moh,*

*Qulluq etgaylar tutubon qo 'shqulooq.*

Yuqoridagi misralar tahliliga yuzlansak, bu yerda ilohiy ishq madh etilgan. Ya'ni, Xisravdek mast qiluvchi ko'zingning orzusida dam qulq qoqib, dam go'zal sajdalar aylaydi. Quyoshu oyning joyi uldurki, qulq tutub qulluq etgaylar demoqda. Ya'ni namoz o'qiladigan bo'lsa, yoki sajda qilinadigan bo'lsa albatta quyosh botish tarafga qarab o'qiladi. Misrada ham jannat umidida, Alloh husnini ko'rish umidida sajdalar qiladilar degan ma'no anglashiladi. Usruk so'zi "mast" degan ma'noni anglatadi. Shavq esa "orzu", "niyat" degani. Sujud arabchada "sajda" degan ma'noni anglatadi. Xurshid "quyosh".

*Garchi, shoho durri serob o 'zini,*

*Qildi nisbat so 'zunga bilmay yaroq.*

*O'z kamoling birla jurmini kechur,*

*Tobg 'ung – da chunki tutti qo 'shqulooq.<sup>4</sup>*

Ushbu misralar ham Yuqoridagi misralarning davomi sifatida kelmoqda. Ya'ni, garchi shoh so'zingga ishonmay, o'zini pokiza durga nisbat qildi. O'z kamoling bilan uning gunohini kechir, chunki qulq tutdi va senga ta'zim qildi demoqda. Bilamizki, muqaddas islom dinimizda namoz o'qish qulq

<sup>3</sup> <https://kh-davron.uz>

<sup>4</sup> <https://kh-davron.uz>



qoqishdan boshlanadi. Yuqoridagi misralada aynan shunga ishora qilinmoqda. Jurm so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, “gunoh”, “jinoyat” degan ma’nolarni anglatadi. Durri serob so‘zi ham aynan arab tilidan olingan bo‘lib “pokiza dur”, “toza dur” degan ma’nolarni anglatadi.

*Zumrai ag‘yordin hech g‘am degul,*

*Gar kishiga o‘z habibi yor esa.*

*Gar qabuliyatqa qobil ko ‘rsangiz,*

*Ush turubtur jon sizningdur bor esa.*

Yuqoridagi misralarda shoir lirik qahramonga murojaat qilmoqda. Ag‘yorlardan ya’ni raqiblardan hech ham g‘am yema, agar insonga o‘z yaqini yor bo‘lsa, agar qabuliyatga qabul ko‘rilsangiz, jon ham bor ham siznikidur demoqda.

*Agar qilsam shaker irnindin savol,*

*Men Gadog‘a Lutfiy birla kelma der.*

*Chun borur bo‘lsam yovuqroq qoshig‘a,*

*Shum raqibi behaqiqat kelma der.<sup>5</sup>*

Yuqoridagi misralarda shoir ma’shuqaga murojaat qilib, agar shakardek labidan savol qilsam, menga Lutfiy bilan kelma der. Agar qoshiga yaqinroq borsam, haqiqatsiz kelma demoqda.

Mustazod (arab) – lirik janr. Mustazodda uzun misralar (14 va undan ortiq bo‘g‘inli) qisqa misralar bilan o‘zaro almashib keladi. Uzun misra uzun misra bilan, qisqa misralar (6 bo‘g‘inli) qisqa misralar bilan qofiyalanadi. Bir bandda misralar soni har xil (2 misradan 10 uzun va qisqa misragacha) bo‘lishi mukin. Qofiyalanish tizimi birinchi band (muxammasda) – ab, ab, ab, ab, ikkinchi band – vg, vg, vg, vg, ab uchinchi – de, de, de, ab va ... Agar mustazod ikki juft misradan iborat bo‘lsa, birinchi bandda qofiya kesishuvchi – ab, ab keyingilarida birinchi misralar qofiyalanmay, ikkinchilari birinchi banddagi qofiyani takrorlaydi. Mustazod Mashrab ijodida ko‘p uchraydi. Gadoiy ijodida ham mustazodning yorqin namunasini uchratish mumkin.

*Ey g‘amzasi fitna, ko‘zi fattan, o‘zi ofat rahm ayla bu jona,*

*Xatm oldi sanga sultanati mulki latofat ey shohi yagona.*

Ushbu baytda yor go‘zalligining tasviri qalamga olingan. Yorga ey g‘amzasi fitna, ya’ni ko‘z ishorasi fitna qiluvchi, ko‘zi maftun etuvchi, o‘zi esa rohatli bo‘lgan yor, bu jonga rahm qil, senga sultanatdagi mulklarning barchasi bahshida bo‘lsin, ey shohlarning yagonasi. G‘amza arabchadan olingan bo‘lib, “ko‘z ishorasi” degan ma’noni anglatadi, fatton esa “jozibali”, “maftun etuvchi”, “fitnaga soluvchi” degan ma’nolarni anglatadi.

*Shaksiz bu yurak qonina parvarda bo‘lub tur ul la‘li ravonbaxsh,*

*Paydou muayyandur, ayo koni zarofat, ko‘p qilma bahona.*

Ushbu misralarda oshiq ma’shuqaga la‘li ravonbaxsh ya’ni on baxsh etuvchi deya murojaat qilib, bu yurak qonimni tarbiya qilib tur, nozikfahmlik koni bo‘lgan ey yor, ko‘p bahona qilma demoqda. Parvarda so‘zi forschadan olingan bo‘lib, “tarbiyalamoq” degan ma’noni anglatadi, paydou forschada “oshkor qilmoq”, zarofat arabchada “nozikfahmlik”, “go‘zallik”, “xushchaqchaqlik”, “ajoyib” degan ma’nolarni anglatadi.

*Chun qolmas emish nomu nishoni sitamu javr, bedod nedindur,*

*Dod ayla, begin, kim uitadur davri xilofat ush kechda zamona.*

<sup>5</sup> <https://kh-davron.uz>



*Otqonda kuzung novaki dildo ‘zni har yon ey sho ‘xi javokesh,*

*Har necha bore di orada bu masofat jon erdi nishona.*

*Jondin ravnaqe qoldi gadoning badaninda ey ruhi mujassam,*

*Shirin dudoqingdin qadari qilg ‘in izofat, tird ‘uz ani yona.*

Yuqoridagi misrada oshiq yorga ruhi mujassam deb murojaat qilib, gadoning badanida bu jondan ravnaq qolmadi, shirin dudoqingdan kuch qo‘shgin, uni yana tiriltir demoqda. Qadari “miqdor”, “kuch”, “taqdir” degan ma’nolarni anglatadi. Izofat arabcha “qo‘shmoq” degan ma’noni anglatadi.

Gadoiyning bizgacha birgina to‘liqsiz 13 baytli qasidasi yetib kelgan. Qasidani taniqli adabiyotshunos olimlar tadqiq qilingan.

Badiiy san’atlar ijodkorlarning she’riyatida nafis chizgilarda o‘z aksini topadi. Badiiy adabiyotning nazariy qo‘llanmasi dastlab arab va forsiylarda paydo bo‘lgan, keyinchalik XIV asrlarda esa, turkiylarda, Ahmad Taroziyining “Funun uk-balogs” (“Yetuklik ilmlari”) asari ilm maydoniga kelgan. Ilgari o‘tgan adabiyotshunos olimlar adabiyot nazaryasi bo‘yicha kitob yozganlarida, ko‘pincha, she’r turlari, yoki vazn yoki badiiy san’at masalasiga to‘xtalganlar yoki biror she’riy janr masalasini yoritib bergenlar. Shayx Ahmad esa, bu sohada mukammal bir qo‘llanma yozishni, o‘z risolasida nazariy masalalarning barchasini yoritib, tahlil qilib berishini niyat qiladi, toki uni o‘qigan kishilar nazaryadan mumkin qadar to‘la ma’lumot va foyda olsin”<sup>6</sup>. Aynan shu asarning uchinchi qismi ilmi bade’, ya’ni she’riy san’atlarga bag‘ishlangan. Asarda badiiy san’atning nazariy ma’lumotlari o’sha davr ijodkorlari namunalari misolida asoslangan. “Funun ul-balogs” o‘zbek tilidagi adabiyotning nazariy masalalari bo‘yicha ilk mukammal qo‘llanma. Bu kabi nazariyalar Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” asarlarida ham to‘liq sharhlangan. Asarda, albatta, ilme bade’ nazariyasi yoritilib, g‘azallar bilan dalillanadi. Yuqoridagi asarlarda keltirilgan tamoyil va talablar asosida ko‘plab ijodkorlar g‘azaliyoti tadqiq etilib kelinmoqda. Jumladan, Gadoiy she’riyatida ham so‘z san’ati namunalari o‘z ifodasini topgan.

Shoir ijodiy merosining asosiy qismini g‘azallar tashkil qiladi. G‘azallari 5 baytdan 9 baytgacha bo‘lib, asosiy qismi 5 va 7 baytli g‘azallardan iboratdir.

### Foydalaniman adabiyotlar

1. Э. “Гадоий девон” Тошкент- 1973.
2. Hojiahmedov A “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya” Toshkent -1998
3. Навоий асарлари луғати Тошкент - 1972
4. Фаниева С. Шоир Гадоий. “Ўзбекистон маданияти” газетаси 1962-йил 1- сентябр
5. O.Karimov. “Mumtoz she’riyat janrlari”. Uslubiy qo‘llanma “Namangan” nashriyoti 2015
6. Ҳайитметов А. “Навоий лирикаси”. Т.: “Фан”.1961.
7. Sulton I. “Adabiyot nazariyasi”. Т.: “O‘zbekiston”. 2007

Gadoiy o‘z salaflari bo‘lgan Rudakiy, Sa’diy, Xusraf Dehlaviy, Kamol Xo‘jandiy, Xofiz kabi shoirlarning ishqiy g‘azallari bilan yaxshi tanish bo‘lib, ular shoirning ijodiy faoliyatiga tasir ko‘rsatadi<sup>7</sup>.

